

## INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING AHAMIYATI

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti  
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 302-guruh talabasi  
Tursunboyeva Sarvinoz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining mazmuni, uning ahamiyati va zamonaviy huquqiy tizimdagi o'rnini tahlil qilinadi. Deklaratsiyaning asosiy tamoyillari – inson hayoti, erkinligi va tenglik huquqlarini ta'minlash kabi masalalar haqida so'z yuritiladi. Maqolada inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining xalqaro huquqning rivojlanishiga qo'shgan hissasi, milliy qonunchilikdagi ta'siri va inson huquqlarini himoya qilishdagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, deklaratsiyaning zamonaviy global muammolarni hal qilishdagi dolzarbligi va istiqbollari ham tahlil qilinadi. Maqola inson huquqlarining universalligi va ularni ta'minlashda xalqaro hamkorlik zarurligini ham ko'rsatadi.

**Abstract:** This article analyzes the content of the Universal Declaration of Human Rights, its importance and its place in the modern legal system. Freedoms of the Declaration - human life, ensuring equal rights are discussed. The article describes the contribution of the Universal Declaration of Human Rights to the development of international law, its influence on national legislation, and its practical importance in the protection of human rights. It also analyzes the development and prospects of modern global solutions. The article also shows the universality of human rights and the need for international cooperation in ensuring them.

**Аннотация:** В данной статье анализируется содержание Всеобщей декларации прав человека, ее значение и роль в современной правовой системе. Основные принципы декларации касаются обеспечения прав человека на жизнь, свободу и равенство. В статье описывается вклад Всеобщей декларации прав человека в развитие международного права, ее влияние на национальное законодательство, а также ее практическое значение в защите прав человека. Также анализируются актуальность и перспективы декларации в решении современных глобальных проблем. В статье также показана универсальность прав человека и необходимость международного сотрудничества в их обеспечении.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, hujjat, Inson huquqlari, Umumjahon deklaratsiyasi, Huquqiy tenglik, Qonun oldida tenglik, Fuqarolik huquqlari, Xalqaro huquq, Inson erkinliklari, Ijtimoiy huquqlar, Milliy qonunchilik, Global muammolar

**Keywords:** human rights, document, Human Rights, Universal Declaration, Legal Equality, Equality before the Law, Civil Rights, International Law, Human Freedoms, Social Rights, National Legislation, Global Issues

**Ключевые слова:** права человека, документ, Права человека, Всеобщая декларация, Юридическое равенство, Равенство перед законом, Гражданские права, Международное право, Свободы человека, Социальные права, Национальное законодательство, Глобальные проблемы.

**Kirish.** Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi – bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan hujjat bo‘lib, butun insoniyat uchun huquq va erkinliklarning universal standartlarini belgilab beradi. Ushbu deklaratsiya, urushlardan keyingi davrda, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan huquqiy hujjatdir. Deklaratsiyaning eng muhim jihatlaridan biri bu huquqlarning universalligi tamoyilidir. U insoniyatning barcha qatlamlari uchun amal qiladi va hech qanday millat, irq, jins yoki ijtimoiy holatga qarab farqlanmaydi. “Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir”<sup>1</sup>.

Insonning asosiy huquq va erkinliklarini universal qilib belgilash;

Har bir insonning qadr-qimmatini va teng huquqliligini ta’minlash;

Tinchlik, adolat va erkinlikka asoslangan jamiyat barpo etishda ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilish.

Deklaratsiyaning mazmuni haqida so‘z yuritilganida avvalo, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 30 moddadan iborat bo‘lib, har bir modda inson huquqlari bilan bog‘liq asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. U quyidagi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Barqaror tenglik: Deklaratsiya irq, millat, jins, til, din, siyosiy qarash yoki boshqa asoslarga ko‘ra kamsitishlarni rad etadi.

Yashash va erkinlik huquqi: Har bir inson yashash, erkinlik va xavfsizlikka ega bo‘lish huquqiga ega.

Qonun oldida tenglik: Har bir inson qonun oldida teng va qonun tomonidan himoya qilinadi. Ushbu tushuncha milliy huquq tizimlarida ham alohida ta’kidlab o‘tilgan tushunchadir.

Ijtimoiy huquqlar: Mehnat qilish, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va madaniyatda ishtirok etish huquqlari ta’minlanadi.

Deklaratsiyaning amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, birinchidan IHUD butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish uchun asosiy me’zon sifatida qabul qilingan.

<sup>1</sup> Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr

Ikkinchidan, Xalqaro huquqning rivojlanishi: IHUD ko‘plab xalqaro shartnomalar va konvensiyalar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan, jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. Ushbu jihatlar ham alohida etiborga loyiqdir.

Uchinchidan: Milliy qonunchilikni shakllantirish: Ko‘plab davlatlar IHUD tamoyillarini o‘z milliy qonunchiligiga integratsiya qilgan hisoblanadi.

To‘rtinchidan: Huquqiy targ‘ibot va himoya: Deklaratsiya inson huquqlarining buzilishini aniqlash va bartaraf etishda xalqaro tashkilotlar va inson huquqlari himoyachilariga yo‘l ko‘rsatib beruvchi hujjat hamdir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining zamonaviy muammolari.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ammo global muammolar, jumladan, qochqinlar inqirozi, kamsitish, internetda shaxsiy ma‘lumotlarning xavfsizligi kabi masalalar uning tamoyillarini amalga oshirishda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli, inson huquqlarini ta‘minlash uchun doimiy ravishda xalqaro hamkorlik zarur deb hisoblayman.

### **Xulosa**

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi – bu insoniyat uchun tenglik, adolat va erkinlik tamoyillarini o‘zida mujassam etgan xalqaro huquqiy normativ hujjatdir. U faqat huquqiy me‘yor sifatida emas, balki odamlarning o‘z huquqlarini bilishi va ulardan foydalanishi uchun kuchli vosita hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillariga rioya qilish nafaqat davlatlarning majburiyati, balki har bir insonning mas‘uliyatidir. Xulosa qilib shuni ham takidlab o‘tish lozimki inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi aynan bir inson yoki muayyan bir davlatning fuqarosi uchun emas balki butun insoniyatning huquqlarini jamlagan huquqlarining jamlanmasidir. Deklaratsiyaning asosiy maqsadi – barcha odamlar uchun adolat va tenglikni ta‘minlashdir. Ammo bu huquqlarning amaliyotga tatbiq etilishi ko‘pincha qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu masalalar ustida ishlash barcha davlatlar va xalqaro hamjamiyat uchun ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyatini ko‘rsatib beradi va uning zamonaviy muammolarga yechim bo‘la olishini ham ta‘kidlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023-y
3. A. Tadjibayev, K. R. Ramazonova “ Inson huquqlari” o‘quv qo‘llanmasi
4. Raxmonqulov H. R. Fuqarolik huquqi va muammolari: Darslik, I-qism. – T., 2010.